Volume 1, Issue 2

SINONIMLAR NUTQNING ANIQLIGINI TA'MINLOVCHI LEKSIK VOSITA SIFATIDA

Eshquvvatova Nasiba
NavDPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4 - kurs talabasi
F.Yuldashev
NavDPI O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada sinonimlarning lisoniy va nutqiy imkoniyatlari, uslubiy xususiyatlari, kontekstul xususiyatlari, umumiy va xususiy imkoniyatlari ochib berilgan. Ushbu sinonimlar nutqning aniqligiga ta'siri yoritilgan.
Kalit so'zlar: sinonim, kontekstual sinonim, leksik sinonim, nutqiy sinonimlar, umumiy ma'no, xususiy ma'no, nutqiy aniqlik.
Bugungi davr talabi – har tomonlama rivojlangan, raqobatbardosh, bilimli, madaniyatli, har sohada faol, kasbiy jihatdan yetuk malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat. Zero, jamiyat hayotidagi barcha o'zgarishlar ta'lim tizimida ham o'z aksini topmoqda. Har jihatdan barkamol shaxsni tarbiyalashda nutq madaniyatining ahamiyati beqiyos. Inson xoh ona tilida, xoh xorijiy tilda nutq irod etmasin, u tinglovchining e'tiborini jalb qila olishi, aytayotgan fikr yoki axborotni aniq, tiniq, betakror hamdanotiqlik san'atini ishga solgan holda yetkazishi kerak.
Nutqning aniqligini belgilashda, betakrorligini ta'minlashda, tinglovchilarga ma'lum bir voqea hodisani oddiy, ixcham, tushunarli, sodda va, albatta, ta'sirchan tarzda yetkazib berishda til vositalarining ahamiyati juda katta. Nutqning aniqligi, to'g'riligi, mantiqiyligi, sofligi, o'rinsiz takrorlardan xoliligini ta'minlashda sinonimlarning o'rni beqiyosdir.
Sinonimlar o'ziga xos ma'no nozikligi asosida ma'lum narsa yoki hodisani aniq tasvirlab beradi, biroq ko'p hollarda sinonimik qatordagi so'zlarning ma'no nozikligi bir-biridan farq qiladi, ulardagi farqlovchi ottenkalarni e'tiborga olmaslik - nutq aniqligiga putur yetkazadi.
Azim Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'atida" *katta* so'zi "kichikning aksi, odatdagidan hajm-o'lchovi ortiq" tarzda izohlangan. Bu so'zning sinonimik qatori shunday tavsiflangan: *Katta, ulug', buyuk, azim, azamat, ulkan, bahaybat, zo'r, haybatli, yirik, gigant* kabi.
Kontekstda esa mazkur sinonimik qatordagi so'zlarning biri o'rniga ikkinchisini qo'llash, har doim ham to'g'ri bo'lavermaydi. Masalan, odam so'zini yuqoridagi so'zlar bilan birikma ko'rinishida qo'llab ko'ramiz: *Katta odam, ulug' odam, buyuk odam, azim odam, azamat odam, ulkan odam, bahaybat odam, haybatli odam, yirik odam, gigant odam, zo'r odam* kabi**.**
Ko'rinib turibdiki, bu qatordagi ayrim birikmalarda nutqning aniqligi buzilgan, ya'ni nutqiy g'alizlik yuzaga kelgan: *gigant* so'zi asosan qurilishga, joyga nisbatan qo'llanadi. Masalan:Gigant qurilish kabi.(O'TIL)
Bahaybat so'zi esa ko'pincha qurilish, joyga nisbatan qo'llanadi. Masalan: Bahaybat tog', bahaybat minora kabi;
Azim so'zi esa daraxt, tog', shaharlarga nisbatan ishlatiladi. Masalan: Azim chinor, azim terak, azim tog', azim shahar kabi;
Zo'r so'zi shaxs tushunchasini beradigan so'z bilan biriktirilsa, lug'atda keltirilgan, "odatdagidan hajm-o'lchovi ortiq, kichikninig aksi" ma`nosi emas, balki *"mohir", "zabardast", "kuchli", "katta mahorat egasi" kabi* ma`nolarini anglatadi. Masalan; zo'r shoir, zo'r pedagog, zo'r ovchi kabi.
Mazkur birikmalarda shaxsga nisbatan qo'llangan "zo'r " so'zi nutqning sodda, o'z navbatida aniq, ta'sirchanligini ta'minlab, nutqiy hamda uslubiy g'alizlikning oldini oladi. Ushbu so'z bilan birikkan so'zlar har tomonlama kamolotga yetgan, ayniqsa, tanlangan sohasining mohir ustasi ekanligini ta'kidlaydi.
G'afur G'ulomning "Sog'inish" she'rida esa zo'r so'zi "karvon" so'zi bilan birikib "kichikning aksi,odatdagidan hajm-o'lchovi ortiq" ma`nolarini bergan.

Zo‘r karvon yo‘lida yetim bo‘tadek
Intizor ko‘zlarda halqa-halqa yosh.
Eng kichik zarradan Yupitergacha
O‘zing murabbiysan, xabar ber, quyosh.

Mazkur banddagi *zo‘r* leksemasini ulkan, katta sinonimlari bilan almashtirib qo‘llash mumkin: katta karvon, ulkan karvon kabi.

Yoki ma’lum bo‘lmoq, aniqlanmoq, bilinmoq, ayon bo‘lmoq sinonimik qatorida ham xuddi yuqoridagidek ma’no nozikliklarini kuzatish mumkin. Masalan, aniqlanmoq va bilinmoq sinonimlarini biri o‘rnida ikkinchisini qo‘llab ko‘ramiz: 1.Mehmonlar juda charchagan edi. Bu horg‘inlik bog‘dan chiqilgandan keyin **bilind**i(O‘TIL). Ushbu gapda “bilinmoq” ma’nodoshi o‘rnida “aniqlanmoq” sinonimini qo‘llasak, nutqning aniqligi buziladi: Mehmonlar juda charchagan edi. Bu horg‘inlik bog‘dan chiqilgandan keyin **aniqlandi kabi.**

Nutq aniqligi buzilishiga sabab inson o‘zining horg‘inligini aniqlamaydi, balki biladi, sezadi. Yoki *xotin, rafiqa, yostiqdosh, ayol, oila* sinonimik qatoridagi so‘zlarni olsak. Bu so‘z “erning nikohidagi ayol, umr yo‘ldoshi “ ma`nolarida qo‘llanadi. Mazkur so‘zlarning ham biri o‘rnida ikkinchisi qo‘llanganda nutqning aniqligiga putur yetadi. Masalan, “xotin”, “rafiqa”, “ayol” so‘zlari er tomondan turmush o‘rtog‘iga nisbatan ishlatilsa,” yostiqdosh” so‘zi xotin tomonidan umr yo‘ldoshi(eri)ga nisbatan ishlatiladi. Masalan: *Uning yostiqdoshi dunyodan o‘tdi,* gapida nutq aniqligi yo‘q, sababi yostiqdoshning erkak va ayol bo‘lishi mumkin. Chunki kim vafot etgani noma’lum. Bu aniqlikni ta`minlash uchun” uning” olmoshi o‘rniga shaxs nomini keltirish kifoya qiladi. Masalan*; Mirsalimning yostiqdoshi dunyodan o‘tdi*. Yoki Salimaning yostiqdoshi dunyodan o‘tdi deyilganda shaxsning jinsi ma’lum bo‘lib, nutq aniqligiga erishiladi.

“Ayol” va “oila” so‘zlarida ma’no kengayishi, umumiylik semasi mavjud. Ya’ni, *Ayol borki, olam munavvar,* deganimizda faqatgina yor, turmush o‘rtoq ma’nolari emas, onalarimiz, opa-singillarimiz ham tushuniladi.

Oila deganimizda esa ota-ona, o‘g‘il-qiz, oilaga daxldor eng yaqin qarindoshlar kiradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, sinonimik qatordagi so‘zlarning har birini ma’no nozikligiga qarab qo‘llash shart. Zero, sinonimlar nutq aniqligini ta’minlovchi birlamchi talablardan omillardandir. Ularning qudrati, ma’no qirrasi, tildagi boy imkoniyati nutqning tasirchanligi oshirish uchun muhim uslubiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Har qanday nutqning go‘zalligi aynan sinonimlar yordamida ilmiy – amaliy isbotini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati . 5 jildli . – T., 2016 .
2. **Hojiyev** A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli **lug‘ati**. – Toshkent. O‘qituvchi nashriyoti. 1970
3. https://ilmlar.uz/gafur-gulom-sherlari-gafur-gulom-asarlari/